

SOYA O‘SIMLIGINI EKISH OLDIDAN TUPROQQA ISHLOV BERISH VA MINERAL O‘G‘ITLARGA SEZGIRLIK XUSUSIYATLARI

Allayarov Sirojiddin Kamolovich - Termiz davlat universiteti, o‘qituvchi, b.f.f.d.
(PhD). Surxondaryo, O‘zbekiston.

Annotatsiya. Mazkur maqolada soya o‘simligini parvarishlashning asosiy bosqichlari, tuproqqa ekish oldidan ishlov berish va mineral o‘g‘itlarga sezgirlik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Soya o‘simligi ekishdan oldin tuproqni tayyorlash, boshqa turdagи o‘simliklarni yo‘qotish va tuproq yuzasini yumshatish kabi muhim jarayonlar tavsiflangan. Shuningdek, soya o‘simligi uchun mineral o‘g‘itlarni vaqtida va me'yorida qo'llashning ahamiyati ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, soya o‘simligi uchun sug‘orishning ahamiyati, suv va oziqa moddalarining zarur miqdorda ta'minlanishi bilan hosildorlikni oshirishga erishish mumkinligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Soya, tuproq ishlov berish, mineral o‘g‘itlar, sug‘orish, hosildorlik, agrotexnika, biologik xususiyatlar, qishloq xo‘jaligi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные этапы ухода за соей, подготовка почвы перед посевом и особенности чувствительности растения к минеральным удобрениям. Описаны важнейшие процессы, такие как уничтожение сорняков и рыхление почвы перед посевом. Также подчеркивается важность применения минеральных удобрений в нужное время и в правильных дозах. В статье также показано, что достаточное количество воды и питательных веществ важно для повышения урожайности сои.

Ключевые слова: Соя, обработка почвы, минеральные удобрения, орошение, урожайность, агротехника, биологические характеристики, сельское хозяйство.

PRE-SOWING SOIL PREPARATION AND SENSITIVITY OF SOYBEAN TO MINERAL FERTILIZERS

Allayarov Sirojiddin Kamolovich – Teacher, PhD, Termiz State University,
Surkhandarya, Uzbekistan.

Abstract: This article discusses the main stages of soybean cultivation, soil preparation before sowing, and the plant's sensitivity to mineral fertilizers. It describes essential processes such as weed control and soil loosening before sowing. The importance of applying mineral fertilizers in the proper time and amounts is emphasized. The article also highlights the significance of adequate water supply and nutrients to increase soybean yield.

Key words: Soybean, soil preparation, mineral fertilizers, irrigation, yield, agronomy, biological characteristics, agriculture.

Tuproqqa ekish oldidan ishlov berish zarur bo‘lib, bundan asosiy maqsad – boshqa turdag'i o‘simliklarni (begona o‘tlarni) yo‘qotish, soya urug‘larining bir tekis chuqurlikka tushushi uchun yuqori qatlamning maqbul yumshoqligiga erishish, tuproq yuzasini tekislash va asosan tuproq namligini saqlab qolish hamda uning tuproq yuzasidan bug‘lanishini kamaytirish hisoblanadi. Ekish oldidan tuproqqa ishlov berish, uning mehanik tarkibi, ifloslanganlik darajasi va namlik sharoitlariga bog‘liq ravishda turlicha texnologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Sho‘rlangan tuproqlar yuvilishi shart. Agar tuproq qishki-bahorgi davrda yuvilgan yoki bostirib sug‘orilgan bo‘lsa, u holda yer ikki marotaba yumshatilib, haydaladi (boronalanadi). Ekish oldidan boshqa turdag'i o‘simliklarni (begona o‘tlar) yo‘qotish maqsadida 1-2 marta kultivatsiya o‘tkazilib, kesaklar maydalanadi.

Eng zararli ildizli boshqa turdag'i o‘simliklar (begona o‘tlar) bilan to‘ldirilgan dalalar ikki marta tozalanadi: birinchi marta - oldingi hosilni yig‘ib olingandan so‘ng darhol diskli kultivatorlar bilan 8-10 sm chuqurlikda va ikkinchisida, boshqa turdag'i o‘simliklar (begona o‘tlar) paydo bo‘lganda, 14-16 sm chuqurlikdagi kultivatorlar bilan, ikkinchi haydashdan 2-3 hafta o‘tgach, 27-30 sm chuqurlikda shudgor qilinadi. Agar ko‘p yillik begona o‘tlar bilan zararlanish ko‘p bo‘lsa, begona o‘tlar birinchi tozalanib, qayta o‘sib chiqqandan keyin dalaga gerbitsid sepiladi.

Bahorda tuproqqa ishlov berish jarayonida uni 1,35-1,4 g/sm³ gacha zichlashtirib yuboradigan og‘ir diskli (K-701 va boshqa og‘ir rusumli) traktorlardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Odatda Arion 600c (610c, 620c, 630c) va Arion 600 (620,630,640,640) rusumli traktorlardan shudgorlashda foydalanish maqsadga muvofiq. Kultivatsiya uchun esa “New Holland TD 5.110”, “TTZ LS U-62”, “USMK-5,4A”, Belarus traktori “MTZ 80” va prujinali borona “BP-8” dan foydalanish mumkin.

Tuproqlarning sho‘rlanish darajasiga qarab 1-2 marta erta bahorda sho‘ri yuviladi. Yer tobga kelganida shudgor qilinib, yer tekislanadi. Tuproqdagi namlik tezda yo‘qolmasligi uchun mola bostiriladi. Tuproqni o‘z muddatida va sifatli tayyorlash soya navlari urug‘larining sifatli ekilishini ta’minlab, maysalarning qiyg‘os unib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Soya mineral o‘g‘itlarga sezgir o‘simlikdir. Soya o‘simligi boshqa dukkakli ekinlar kabi ildizida yashovchi simbiotik tugunak bakteriyalari (*Bradyrhizobium japonicum*)ning faoliyati tufayli atmosfera azotini biriktirib olishi natijasida qo‘shimcha iqtisodiy va ekologik foyda keltiradi. Soya ildizidagi *Bradyrhizobium japonicum* kislotali tuproqlarda yaxshi rivojlna olmaydi, shuning uchun ham tarkibida kislota mavjud bo‘lgan o‘g‘itlardan foydalanmaslik maqsadga muvofiq. Soyani mineral o‘g‘itlar bilan taminlash tizimi urug‘larni ekish davrida va o‘simliklarning vegetatsiyasi davrida mineral o‘g‘itlarni berishdan iborat. Bunda ularning meyori tuproqning agrokimyoviy xossalidan kelib chiqib geftariga 30-40 kg azot, 70-90 kg fosfor va 30-40 kg kaliy berish maqsadga muvofiq.

O‘rganilgan soya navlarini yetishtirilganda mineral o‘g‘itlar 2 marta berildi: urug‘larni ekish davrida, qolgan yarim qismi esa o‘simliklarda gullashning boshlanish davrida ishlatildi. Soya o‘simligini barg orqali ham oziqlantirish mumkin. Unumdotligi past tuproqlarda soya o‘simligi gullashining boshlang‘ich davrida ozuqa elementlariga juda muhtoj bo‘ladi. Shu davrda barglar orqali qo‘shimcha oziqlantirish tavsiya qilinadi. Sug‘oriladigan dehqonchilikda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan olinadigan hosil ko‘p jihatdan o‘simliklarni vegetatsiya

davrida biologik xususiyatlariغا mos ravishda suv bilan ta'minlashga bog'liqdir, chunki o'simlikdagi barcha fiziologik va biokimyoviy jarayonlar yetarli suv bilan ta'minlashni talab qiladi. Soya o'simligi gullashdan dukkaklari pishguncha suvgaga talabchan bo'ladi, suv yetishmasa gullari va dukkaklari to'kiladi, pirovardida hosildorlik kamayadi. Shuning uchun soyadan yuqori hosil olish uchun yetarli me'yorda sug'orish zarur.

Sug'oriladigan sharoitlarda mineral o'g'itlarning samaradorligi o'simliklarning suv bilan ta'minlashiga ham bog'liqdir. Tadqiqotlarimizda o'rganilgan soya navlarining biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ertapishar va o'rtapishar navlarini 6-7 marta (har safar 600 m³ ga me'yorida) sug'orish kerak. Bunda o'simliklarning gullah va pishish davrlarida sug'orish tez-tez amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ёрматова Д., Ҳамроева М.К., Ғойипова М.А. Сурхондарё вилояти тупроқ-иклим шароитига мослашган, юқори ҳосилдор соя ўсимлигини етишириш, уруғ навларини саралаб олиш ва ўз вақтида агротехник тадбирларни амалга ошириш // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: №6/1 (90), 2022. – Б. 146-148.

2. Маҳмудов Ў., Ҳаликов Б. Экиш муддатлари ва меъёрларининг такрорий ерёнгоқ ҳамда соя экини ривожланиш фазаларига таъсири// Агрономика. №2. 2020.– Б. 157-159.

3. Baxriddinovna R. U., Musurmonovich F. S. Soybean-as a source of valuable food //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 6. – С. 165-166.

4. Musurmonovich F. S., Komiljonovna X. S., Qudrat o'g'li S. A. Some Photosynthetic Indicators of Soybean Varieties //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 5. – С. 255-257.

5. Ergashovich K. A., Musurmonovich F. S. Some Characteristics Of Transpiration Of Promising Soybean's Varieties //The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2021. – T. 3. – №. 05. – C. 28-35.
6. Фозилов III. М. Периодичность роста и формирования урожая у внутривидовых форм пшеницы //Интернаука. – 2019. – №. 45-1. – С. 18-20.
7. Baxriddinovna R. U. Methodology For Solving Problems of Food Chains and Ecological Pyramids and Its Significance //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 28. – C. 19-22.
8. Fozilov S. The effect of drought on the water regime in the leaves of soybean varieties //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 9. – С. 25-28.